

ISSN 2181-8258

DOI prefiksi: 10.69691

ResearchBib IMPAKT FACTOR: 9,347

Journal THE LIGHT OF CIVILIZATION

Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine

TAMADDUN NURI

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal



2 (65)

2025



TAMADDUN NURI jurnali

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy,
adabiy-badiiy jurnal

MUASSISLAR: Beruniy tuman hokimligi

"Tafakkur-tamaddun" OOO

"Beruniy avlodlari" jamoat fondi

HAMKORLARIMIZ:

O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Urganch davlat universiteti

TAHRIR HAY'ATI:

BOSH MUHARRIR:

Munavvara KURBANBAYEVA

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Anvar ALLAMBERGENOV

TEXNIK MUHARRIR:

Islombek ABDIKHAKIMOV

BO'LIM MUHARRIRI:

Muqaddas KURBANBAYEVA

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.

Qahramon QURONBOYEV, s.f.d., prof.

Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)

Roman GOPAL, fil.f.f.d (PhD) (Hindiston)

Azizulloh AROL, fil.f.f.d (PhD) (AQSh)

Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)

Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)

Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)

Xəlil İsmayıl oğlu İsmayilov, t. f.d, prof. (Ozarbayjon)

Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.

Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.

Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Shoira NURULLAYEVA, t.f.n, dots

Konul Bunyadzoda, fəlsəfə fanlari doktoru,

(AMEA) müxbir üzvü (Ozarbayjon)

Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.

Alima BERDIMURODOVA, fal.f.d.

Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, f.f.d., prof. (Ozarbayjon)

Nasibullina Nurida Shaydullovna, fil.f.n. (Rossiya Federatsiyasi)

Sayyora SAMANDAROVA, fil. f.n, dotsent

Bekposhsha RAXIMOVA, fil.f.n, dots (PhD)

Azamat PRIMOV, fil.f.n, dots (PhD)

Vahob RAHMONOV, f.f.n., dots

Farrux Abbas oglu Rustamov, p.f.d, prof. (Ozarbayjon)

Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d., prof.

Safo MATJONOV, p.f.d., prof.

Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)

Masharib ABDULLAYEV, s.f.f.d., (PhD), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Odilbek RADJAPOV, fal.f.f.d., (PhD)

Rana Hamid qızı Qadirova, psixol.f.d., prof. (Ozarbayjon)

Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilafroz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Qabil MAMBETOV, fil.f.f.d (PhD)

BIZNI UTIMOYIY TARMOQLARDA QUIYDAGI MANZILLARDA KUZATING:



JAMOATCHILIK KENGASHI:

Sirojiddin SAYYID

Muhammad ALI

Kengesboy KARIMOV

Iqbol MIRZO

Qurbon SHONIYOZOV

O'rozboy ABDURAHMONOV

Murotboy JUMANOV

Adabiy maslahatchi:

Guliston MATYOQUBOVA

Rassom:

Alibek ABDURAHMONOV

Sahifalovchi-bezovchi: G'iyosiddin O'NAROV

Manziliz: Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Beruniy tumani.

Web-sayt: <https://jurnal.tamaddunnuri.uz>

e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.

Telegram kanali: <https://t.me/tamaddunnuri>

Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.

Qog'oz bichimi 60x84 ¼. Nashriyot hisob tabog'i 28.

Indeks – 960. ISSN 2181-8258. "ADAD PLYUS" MCHJ

bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.

Bosishga 2025-yil 28-fevralda ruxsat etildi.

Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi, 28-uy. 2025-yil, 2-son (65).

Ushbu son "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining
kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №29.

Jurnalidan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri" dan olindi deb
izohlanishi shart. Matn hamda reklamalarda ma'lumotlarning
to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.



"Tamaddun nuri" jurnali Google Scholar
bazasida indekslanadi. Bu esa jurnalning ilmiy nufuzini oshirish va
mualliflarning ilmiy ishlarini keng miqyosda targ'ib qilishga yordam
beradi. Google Scholar orqali tadqiqotchilar va olimlar "Tamaddun nuri"
jurnalida chop etilgan maqolalarni qidirib topish va ularga havola
berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a'zosi hisoblanadi va
10.69691 DOI prefiksiga ega. Har bir nashr va ilmiy
maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.



Crossref 10.69691 DOI



ISSN-2181-8258



Impakt faktor-9.347



SLIB.UZ



Journal THE LIGHT OF CIVILIZATION

Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine

Founders: Beruniy District Municipality

"Tafakkur-tamaddun" OOO

Public Foundation "Descendants of Berunius"

Our colleagues: Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan Karakalpakstan division

Karakalpak State University

Urgench State University

EDITORIAL BOARD:

EDITOR-IN-CHIEF:

Munavvara KURBANBAEVA

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Anvar ALLAMBERGENOV

TECHNICAL EDITOR:

Islombek ABDIKHAKIMOV

SECTION EDITOR:

Mukaddas KURBANBAEVA

Akmal SAIDOV, y.sc.d., prof., Acad.

Qakhraman QURANBAYEV, s.sc.d., prof.

Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)

Roman GOPAL, phil.sc.n. (PhD) (India)

Azizulloh AROL, phil.sc.n. (PhD) (USA)

Almagul BAYRIEVA, s.sc.d., (DSc)

Zuhra REYMOVA, y.sc.d., (DSc)

Karligash UMAROVA, y.sc.d., (DSc)

Xəlil İsmayıl oğlu İsmayilov, ist. sc.d, prof. (Ozarbayjon)

Anvar ABDULLAEV, ist.sc.d, dots.

Makset KARLIBAEV, t.f.d., k.i.x.

Kazimbek TUKHTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Shoira NURULLAEVA, c. of h. sciences, associate professor

Konul Bunyadzoda, Doctor of Philosophy,

(AMEA) Corresponding Member (Ozarbayjon)

Bakhtiyar KARIMOV, phil.sc.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, phil.sc.d.

Alima BERDIMURODOVA, phil.sc.d.

Zarifboy DOSIMOV, Phil.sc.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, f.sc.d., prof. (Ozarbayjon)

Nasibullina Nurida Shaydullovna, can. of phil (Rossiya)

Sayyora SAMANDAROVA, associate professor, can.of phil.

Bekposhsha RAKHIMOVA, can. of phil.sc, dots (PhD)

Azamat PRIMOV, can. of phil.sc, dots (PhD)

Vahab Rakhmonov, f.sc.n., dots.

Farrux Abbas oglu Rustamov, p.sc.d, prof. (Ozarbayjon)

Kazakboy YOLDASHEV, p.sc.d., prof.

Safo MATJONOV, p.sc.d., prof.

Qakhraman IBADULLAEV, p.sc.d., (DSc)

Masharib ABDULLAEV, of art.sc.c., (PhD), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Odilbek RADJPOV, phil.sc..d., (PhD)

Rana Hamid qizi Qadirova, Psychol.sc.d., prof.(Ozarbayjon)

Nargis ATABAEVA, Psychol.sc.d., (DSc)

Dilafuz QARSHIEVA, Psychol.scd., (DSc)

Qabil MAMBETOV, phil.sc.n. (PhD)

FOLLOW US ON SOCIAL MEDIA BELOW:



COMMUNITY COUNCIL:

Sirojiddin SAYID

Muhammad Ali

Kengesboy KARIMOV

Iqbal MIRZA

Kurban SHONIAZOV

Orozboy ABDURAHMANOV

Muratboy JUMANOV

Literary Advisor:

Gulistan MATYOQUBOVA

Painter:

Alibek ABDURAHMANOV

Page editor:

Ghiyaziddin O'NAROV

Our address: Republic of Karakalpakstan, Beruni district.

Website: <https://tamaddunnuri.uz>

e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.

Telegram channel: <https://t.me/tamaddunnuri>

Phone: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.


The editorial board is an official member of Crossref DOI and has the prefix 10.69691 DOI. Each publication and scientific article is assigned an individual Crossref DOI number.

Paper size 60x84 1/4. Publisher's scoreboard 28. The index is 960.

It was published in the printing house of "ADAD PLUS" LLC. The number is 300 pieces.

Chilonzor street, 28, Tashkent city. 2025, No.2 (65).

This issue was paged on the computer of "Tamaddun Nuri" editorial office. Order #29. When copying from the magazine, it must be noted that it was taken from "Tamaddun Nuri". The authors are responsible for the accuracy of the information in the text and advertisements. Manuscripts received by the editors will be edited, not reviewed, and not returned to the author.



"Tamaddun nuri" magazine is indexed in the Google Scholar base. This helps to increase the scientific prestige of the Journal and to promote the scientific work of the authors on a large scale.

Through Google Scholar, researchers and scientists will be able to search and link articles published in the Journal "Tamaddun nuri".



Crossref

Crossref DOI-10.69691



ISSN-2181-8258



Impakt faktor-9.347



SLIB.UZ



MUNDARIJA

07.00.00 - "TARIX"

Наврузов Сапарбой. Хива рус босқини арафасида.....	9
Матякубов Шоназар Собирович. Огаҳийнинг "Гулшани давлат" тарихий асарида Саййид Муҳаммадхон хонлик даври воқеалари тафсилотлари.....	21
Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich. Sug'orish tizimi tarixi haqida qaydlar (Yahyo G'ulomovning "Xorazmning sug'orilish tarixi" asari misolida)....	38
Омонов Анварбек Мүродович. Селунгур ғор макони палеофаунаси тарихига доир.....	93
Jumayeva Shoxida Choriyevna. Chorvachilik va qishloq aholisining ijtimoiy hayoti: muammolar va istiqbollar.....	103
Matyakubova Shahodat Xamidjanovna. Quyi Amudaryo hududida ilk o'rta asr sug'orilish tarmoqlari tarixiga doir ba'zi mulohazalar.....	115
Rajabova Zilola Kahramon qizi. XIX asrda O'rta Osiyoda aloqa tizimining shakllanishi va rivojlanish tarixi.....	118
Tishabayev Alisher Maxamatdjanovich. O'zbekiston respublikasida jismoniy tarbiya va sport moddiy-texnika bazasining mustahkamlanishi (1991-2019).....	124
Begaliyev Javlonbek Rayimnazarovich. O'zbekistonda mualliflik huquqlarini himoya qilish borasidagi muammolar tarixi (1970-1990-yillar misolida).....	158
Исмоилова Парвина Хамиджон кизи. Русские банки в туркестане: возникновение и последствия в конце XIX - начале XX века.....	204
Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li. Xorazm vohasida ilk urbanistik jarayonlarning tadqiqoti muammolari.....	233
Usmanova Inobat Ibragimovna. Janubiy orolbo'yi havzasida bronza davridagi turar joylarining arxeologik tadqiqotlari.....	245
Raxmatov Murod G'aybullayevich. XX asr boshlarida turkiston jadidchilik harakati namoyandalarning g'oyaviy va nazariy qarashlari.....	248
Teshayeva Yulduz Hakim qizi. Ayollarning ilm-fandagi rolini oshirish borasida amalga oshirilayotgan chora tadbirlar.....	271
Allamuratov Shuxrat Ashurovich. Termizning Amudaryo orqali savdo aloqalari (XIX asrning oxiri - XX asrning boshlari).....	275
Xo'janazarov Absalom Ziyadullayevich. Surxondaryo viloyatida koronavirus pandemiyasi oqibatlarini bartaraf etish bilan bog'liq ishlar.....	279
Saparbayev Bunyodbek Xurrambek o'g'li. Tarixchi Munis va Ogahylarning "Firdavs ul-iqbol" asarining Xiva xoni Muhammad Rahimxon I davrida (1806-1825) Xiva xonligi va Rossiya munosabatlarini tadqiq qilishdagi ahamiyati.....	316
Atajanov G'ulomjon Urinboyevich. Sayfiddin Qutuz tarixining yangi sahifalari.....	324
Матёқубов Алишер. XX асрнинг 20-йиллари биринчи ярмида Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнларнинг баъзи масалалари.....	343
Джуманиязова Фируза Джуманазаровна. Активное участие женщин Хорезма в оказании помощи фронту.....	352
Бабожонов Дилмурод Комилович. Хива "Ичан-қалъа" давлат тарихий-меъморий музей қўриқхонасининг фаолияти.....	356

09.00.00 - "FALSAFA"

To'xtasimov Ro'zimuhammad Nurmuhammad o'g'li. Ibn Sinoning "Ixlos" surasi tafsiridagi falsafiy qarashlari tahlili.....	15
Tursinkulov Nurali Anarbeyevich. Islom va erkinlik: falsafiy va amaliy jihatlar.....	42
Samadov Jonmurod. Jaloliddin Rumiyning gnoseologik qarashlari.....	52
Madaminzoda Abdulatif Baxtiyor o'g'li. Abul Muin Nasafiyning olam haqidagi falsafiy qarashlari.....	80
Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich. Tinchlikparvarlik axloqiy tamoyili va uning O'zbekiston tashqi siyosatidagi o'rni.....	83
Akmal Axmedovich Axmedov. Iste'molchi axloqining ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri.....	106
Ne'matova Orzigul Axmedovna. "Husni-xulq"ning tarixiy-nazariy va falsafiy talqini.....	169
Raximov Xolmurod Majitovich. Islom tasavvufida "tajalliy" tushunchasi.....	183
Uzoqova Lola Abdurashitovna. Alisher Navoiy ma'naviy merosida axloq prinsiplarini ifodalanishi.....	189
Begaliyev Jo'rabek Toshbekovich. "Osor al-boqiya" asarida antropologik masalalar tahlili.....	211
Axmedova Ma'rifat Abdullayevna. Ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarning barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati.....	215
Joldasbayev Oralbay Yernazarovich. Berdaq ilmiy merosida jamiyat taraqqiyoti haqidagi qarashlar tahlili.....	237
Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich. Yangi O'zbekistonning yoshlarida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish davr talabi.....	253
Norliyev Rustam Ibragimovich. Shaxs bioijtimoiy xususiyatlarini rivojlantirishning dialektik jihatlarini.....	283
Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich. Ma'naviy marginallashtirishning falsafiy jihatlarini.....	286
Arolova Zarina Lochin qizi. Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda barqaror rivojlanish tendensiyalari.....	289
Safarov Akbar Isakulovich. Globallashtirish sharoitida ekologik ongning transformatsiyasi va jamiyatdagi roli.....	292
Axatov Lutfilla Karamatilloevich. Tasavvuf mohiyatining tazkiralarda namoyon bo'lishi.....	296
Maxmudov Feruz Tulkinovich. Yangi O'zbekistonda mahalla instituti faoliyati va uning istiqbollari.....	313
Turabova Sevara Kattaqulovna. Yusuf Xos Hojibning siyosiy falsafasi "uchinchi renessans" konsepsiyasi talqinida.....	331
Xandamova Ma'rifat Akramovna, Jantayev Maqsud Ibragimovich. Al-Xorazmiyning "Kitob surat al-arz" asaridagi geografik va ontologik qarashlar.....	334
Isroilov Bektosh Erkinovich. Vorisiylikka innovatsion yondashuvning ijtimoiy-falsafiy masalalari.....	359

TASAVVUF MOHIYATINING TAZKIRALARDA NAMOYON BO‘LISHI

*Axatov Lutfillo Karamatilloevich, Chirchiq davlat pedagogika
universiteti*


“Fakultetlararo ijtimoiy fanlar” kafedrası mudiri

THE MANIFESTATION OF THE ESSENCE OF SUFISM IN TAZKIRA

*Akhatov Lutfillo Karamatilloevich, Head of the Department
of “Interfaculty Social Sciences” of Chirchik State Pedagogical
University*

ПРОЯВЛЕНИЕ СУФИЙСКОЙ СУЩНОСТИ В ТАЗКИРАХ

*Ахатов Лутфилло Караматиллоевич, заведующий кафедрой
“Межфакультетские общественные науки” Чирчикского
государственного педагогического университета*



<https://orcid.org/0000-0002-9804-6220>

e-mail: 1axatov@cspi.uz

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishimizda tasavvuf va ilmga oid qarashlar mohiyati soʻfiylar hayoti va tasavvufiy qarashlari yordamida tahlil qilingan. Tasavvufning rivojlanishi soʻfiylar axloqi, falsafiy mushohada, irratsional yondashuv asosida koʻrib chiqilgan.

Kalit soʻzlar: tasavvuf (arab.: التَّصَوُّف), tazkira, soʻfiy, ilm, islom, idrok, irfon, falsafa.

Abstract: In this research work, the essence of Sufism and views on science are analyzed using the life and views of Sufis. The development of Sufism is considered based on an irrational approach in the philosophical observation of Sufi ethics.

Keywords: Sufism (arab.: التَّصَوُّف), tazkira, Sufi, science, Islam, perception, irfan, philosophy.

Аннотация: В данной исследовательской работе сущность суфизма и взгляды на науку анализируются на примере жизни и мистических воззрений суфиев. Развитие суфизма рассматривается в философском исследовании суфийской этики, основанном на иррациональном подходе.

Ключевые слова: суфизм (араб.: التَّصَوُّف), tazkira, суфий, наука, ислам, прозрение, ирфан, философия.

KIRISH. Tasavvuf va uning mohiyatini anglashda mutafakkirlar ilmiy merosi – tazkirasining tahlil qilinishi yangicha yondashuvlardan sanaladi. Tazkiranavislardan “Tazkirat ul-avliyo” va Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” tazkiralarning Habib Ajamiy qissasida Habib Ajamiyning xarakteri uning qilgan amallaridan xulosa qilgan holda tasavvufga xos yuksak mahorat bilan tasvirlab berilgan [1; 67-68-b].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Attor Habib Ajamiy obrazida sudxoʻr, xasis

portretini chizar ekan, undagi xasislik tabiatini mahorat bilan tasvirlaydi. Chunki, Habib Ajamiy xazinalarni toʻplayverar edi-yu, kambagʻal, nochorlarga himmat koʻrsatmas edi. Qissa mazmunicha, Habibning xasisligidan uning dargohidan tilanchi noumid boʻlib qaytgani bois uning qozonidagi taomi qonga aylangani va sudxoʻrligi bois hamma undan nafratlanishini va bunday xato qilmishidan voqif boʻlib, pushaymon boʻlganini muallif yuksak mahorat bilan tasvirlaydi.

Bu holni Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da quyidagicha tasvirlaydi:

“Avoyilda g‘ani erdi, elga yormaq [tanga] sudqa berur erdi. Har kun muaddilarg‘a yormaq tilay borur erdi. Agar vajd ado qildilar yaxshi. Yo‘q ersa, oyog‘ining muzdin olur erdi va andin qut qilur erdi va xalq tiliga bu sifat bila mazkur bo‘lur erdi. Va tavbasig‘a sabab bu erdiki, bir kun bu nav‘ vajdin taom pishirub erdi. Soyil: “Shay‘ulloh” [bu Allohning ishi] dedi. Ul achig‘anib, soyilni quvdiki, taom ozdur, sanga yetmas. Xotuni chun taomni chiqarurg‘a qozonning boshin ochdi, ko‘rdiki, ul taom tamom qon bo‘libtur. Ani tilab ko‘rguzdiki, soyilga shiddat qilg‘onining shumlig‘idin bu hol voqe‘ bo‘lubtur. Ul bu holni ko‘rgach, holi mutag‘ayyir bo‘lib, Shayx Hasan Basriy xizmatig‘a yetib, har nedinkim bor erdi, chiqib inobat yuzidin tavba qildi”[2; 40-b].

Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida Habib Ajamiyga bag‘ishlangan qissasida avval Habib Ajamiy ta‘rifini keltirib, “g‘ani erdi”, “berur erdi”, “borur erdi” kabi so‘zlarni qo‘llash orqali badiiy san‘atning “saj” san‘atidan o‘rinli foydalanganligini ko‘rish mumkin. Navoiy Habib Ajamiy qissasidagi obrazlarni Attorga nisbatan qisqaroq, lekin serqirra so‘zlar bilan tasvirlashga harakat qilgan. Masalan: Attor (Tazkirat ul-avliyo)da “Nogoh bir tilanchi kelib: - Shay‘an lilloh! – deb faryod qildi” desa, Navoiy bu holatni (“Nasoyim ul-muhabbat”)da “Soyil: “Shay‘ulloh” dedi” deb kifoyalanadi.

MUHOKAMA. Bundan tashqari, Navoiy Habib Ajamiy obrazi timsolida xasislik, tekinxo‘rlik, sudxo‘rlik, dunyoparastlik kabi illatlarning odamzodning asl tiynatiga zid ekanligi, uning salbiy oqibatlar bilan birga, tavba, iymon, insof, himmat, muruvvat, toat, ibodat kabi fazilatlar asl insoniylik ziynati ekanligi va uning ijobiy natijalarini yuksak darajadan turib, tasvirlashga harakat qilgan.

Mashoyixlar tasviridagi tush epizodini Navoiy asari (“Nasoyim ul-muhabbat”)dagi bir qator mashoyixlar siyratini tasvirlashda ham ko‘rish mumkin: Navoiy Imom Shofi‘iy roziollohu anhu to‘g‘risidagi fikrida quyidagi ma‘lumotni keltirish orqali ifodalaydi: Shofi‘iy debdurki: “Rasul sollallohu alayhi va sallam voqiada muborak og‘zi suyini mening og‘zimg‘a soldi, andoqki, og‘zimg‘a va irnimga va tilimga yetishti. Va dedi: “Borki, Tengri sanga barakot bersun va hamul soat amirul mo‘minin Ali karamallohu vajhahu uzugin chiqarib, mening

barmog‘img‘a soldi, to Nabiyy va valiyning ilmi manga siroyat qildi”[2;49-b].

Bu tasvir vositasida Navoiy Imom Shofi‘iy roziollohu anhu ta‘rifini yuksak maqomdan turib, uni sharh etishga so‘z va qalam ojizligi, agar bayonini bitsa qog‘oz yetmasligi, agar fikr yuritilsa aql ojizligini e‘tirof etadi. Ruhiy borlig‘iga ishora.

Mualliflar asardagi potret tasviri mukammal chiqishida badiiy san‘atlardan san‘atkorona foydalanganlar. Biz buni Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asaridagi Abu Hozim Makkiy potreti tasviri misolida ko‘radigan bo‘lsak, muallif mashoyix potretini quyidagicha tasvirlaydi. “U rahbarlar muxlisi, hidoyatdagilar rahbari, sobiqlar chirog‘i, sodiqlar tongi, boyligu kambag‘allik ma‘dani, mujohada, mushohada va riyozat ichida bemisl, uning so‘zi barcha ko‘ngillarda maqbul, barcha mushkullarning yechuvchisi va uning so‘zlari ko‘p, valekin biz qisqa qildik”[1; 73-b]. Muallif tanosub, tazod, tashbeh singari badiiy san‘atlar bilan birga istiora va saj san‘atidan mahorat bilan foydalangan. “Hidoyatdagilar rahbari”, “sobiqlar chirog‘i”, “sodiqlar tongi”, “boylig-u kambag‘allik ma‘dani” singari istioralar mazkur iqtibosdagi matn badiyyatini ta‘minlagan asosiy omillardir. Bunday holatni Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi Shayx Baqaliy qaddasallohu taolo sirrahu potreti tasviri misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Bu esa tasavvufda so‘fiyning amaliy tahlili sanaladi. “Sultoni ulamo va burhoni urafo erdi, quvvai ushshoq”[2; 217-b]. Muallif tanosub, tazod, tashbeh kabi san‘atlar bilan birga istiora san‘atidan mahorat bilan foydalangan. “Sultoni ulamo”, “burhoni urafo”, “quvvai ushshoq” singari istioralar ushbu iqtibosdagi matn badiyyatini ta‘minlash bilan birga mashoyix potretini mahorat bilan tasvirlaganini ko‘rishimiz mumkin.

NATIJALAR. Tasavvufni anglash bu so‘fiylik bilan cheklanib qolish emas, balki, tazkirada nomlari zikr etilgan ba‘zi “zot”larning ham hayot tarzini bilishga undashi bilan ifodalanadi. Tazkira, inson tafakkurining ilmiy-diniy shaklidagi manzarasini ifodalab, uning umuminsoniy shakli sifatida, jamiyatdagi mavjud holatlarning ma‘naviy-ma‘rifiy jihatdan yanada takomillashtirish, yuksaltirish va rivojlantirish va uning mazmun-mohiyatini amalda namoyon qilishga qaratilgan manbalar sirasiga kiradi. Shuning uchun, jamiyat, xossatan, Sharq islom olamining allomalari va ularning ilmiy-irfoniy meroslarini har tomonlama

o'rganishga alohida e'tibor berish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda Sharq renessansi (o'rta asr) davri allomalari va mutafakkirlarining ilmiy-irfoniy merosini o'rganish uchun chet el, xususan, Ovrupo olimlari tomonidan bu yo'nalishda amalga oshirilgan "natija"lar, boy tajriba bilan oshno bo'lmastan turib, aniq xulosaga kelish qiyin albatta. Tamaddun manbalari orqali tahlil qilinib, amalga oshirilgan "natija"larga qaralsa, Sharq musulmon olami renessansi davri allomalari va mutafakkirlarining ilmiy meroslari, xususan, tazkirachilik bobidagi qarashlarini o'rganish masalasiga ba'zan xolis yondashilmagan. Bu esa, tazkiralari mohiyatini tushunishga undaydi. Va biz bu borada tazkiralarni qiyosiy tahlil qilish orqali ma'lum ma'noda (qisman bo'lsa-da) ma'lumotga ega bo'lamiz.

Sharq xalqlari ma'naviy merosi keng jamoatchilik nigohidan o'rin olish uchun yana bir bor ilmiy izlanishlar natijasi o'laroq, "Mustaqillik tufayli Imom Buxoriy, Imom Iso Termiziy, Mahmud Zamaxshariy, Imom Abu Mansur Moturidiy, Shayx Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Aziziddin Nasafiy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy kabi ko'plab ulug' allomalar, tariqat peshvolari, aziz-u avliyolarning nomi tiklangan" ligi aytiladi[7;29-32-b].

Shuningdek, butun umri va faoliyati davomida olimlarni qadrlagan Alisher Navoiy ularning tarixini anbiyo, payg'ambarlar tarixidan keyin, ularni birgalikda bitgani alohida tahsinga sazovor holdir. Bu kitob tarixchi, olim va shoirlarga qadimgi davr izohi uchun muhim manba vazifasini o'tashi mumkin. Bu asarni manbashunoslik fanida alohida o'rganish shuning uchun ham zarurki, tarixga oid asarlarda tafsilotlari keltirilmay, juda ko'p o'rinlarda payg'ambarlar va ularning hayotiga oid voqealarga murojaat qilish uchraydi.

XULOSA. Mana shu jihatidan Alisher Navoiy asari ham tarixchi olimlar, ham tarixni o'rganuvchi talabalar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Shuning bilan birga, asarda Alisher Navoiyning mashhur tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiyga munosabati bayon etilgan. Navoiy uning "Zafarnoma" asari muqaddimasini zikr qilar ekan, tarixchini "mavlono sharaf ul-millat va davla", ya'ni "davlat va millat sharafi" deb ta'riflaydi[5;50-57-b].

Alisher Navoiyning "Tarixi muluki Ajam" ("Arab bo'lmagan shohlar tarixi") asari o'z davri nuqtayi nazaridan ilmiy dalillarga asoslangan risola hisoblanadi. Asarda Eron va Turon mulkida hukmronlik qilgan to'rt sulola: peshdodiyalar, kayoniyalar, ashkoniylar, sosoniylar tarixi batafsil hikoya qilinadi.

An'anaga muvofiq tarix Odam Ato (a.s.) davriga bog'liq ravishda talqin qilinadi. Alisher Navoiy mazkur asarda "Nizomu-t-tavorix", "Jomeu-t-tavorixi Jaloliy", "Nasihatu-l-muluk", "Jovidon xirad", "Odobu-l-arab va a-l-furus", "Guzida", "Muntahab", "Devonu-n-nasab" kabi manbalardan foydalanadi va Banokatiy, imom Muhammad G'azzoliy, Tabariy, Bu Ali Miskavayh, Qozi Barzoviyy kabi tarixchi olimlarning nomlarini keltirib, ma'lumotlarni ularning asarlaridan olganini aytib o'tadi. Shoirlardan Abulqosim Firdavsiy va uning "Shohnoma"siga ko'proq murojaat qiladi. Iskandar haqidagi qissada esa xamsanavislar Xusrav Dehlaviy, Nizomiy Ganjaviylarning qarashlarini keltirib o'tadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Фаридуддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. Т.: Гафур Гулом нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017.
2. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. Movarounnahr nashriyoti. T., 2017.
3. Akhatov. The Problem of Tolerance in Oriental Philosophy. *Multidisciplinary Peer Reviewed Journal* 6.7 (2020): 130-133. Web.
4. Akhatov, Lutfullo. A Symbol of Tolerance and Friendship in Jamiy's Work Bahoriston. *International Journal of Current Science Research and Review* 3 (2020): 29-32. Web. Apr. 2020.
5. Akhatov, L. (2020). The problem of human psychological crises in the views of Emil Durkheim. *Наука, образование и культура*, 50(6), 50-57.
6. Akhatov, L. (2020). A Symbol of Tolerance and Friendship in Jamiy's Work Bahoriston. *International Journal of Current Science Research and Review*, 1(1), 29-32.